

# Navoiy viloyat statistika boshqarmasi



## 2018 yil yanvar-fevral oylarida Navoiy viloyatining sanoat ishlab chiqarishi

### RAQAMLAR:

- Sanoat ishlab chiqarish hajmi **3333,3 mlrd.so'mni**, o'sish **1,8 %ni** tashkil etdi
- Iste'mol tovarlari ishlab chiqarishning o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati **-97,7 %**
- Iste'mol tovarlarning jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi - **7,9 %**
- Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi – **9,8 %**

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2018 yilning yanvar-fevral oylarida viloyatimiz korxonalarini tomonidan 3333,3 mlrd.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 101,8 % ni tashkil etdi.

Mahsulotlar ishlab chiqarishning eng katta hajmi ishlab chiqaradigan (qayta ishlaydigan) korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan bo'lib, ularning jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 64,3 % tashkil etdi. Sanoat ishlab chiqarishning oshishiga tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalarini ham munosib hissa qo'shdi, ularning jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 29,5 foiz, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 100,4 % tashkil etdi.

### 2018 yil yanvar-fevral oyida asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi





### ***Tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash.***

Tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 983,4 mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 29,5 % ni tashkil etdi.

### ***Ishlab chiqaradigan sanoat (qayta ishslash sanoati).***

2018 yilning yanvar oyida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 2145,5 mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 64,3 % ni tashkil etdi.



### ***Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash.***

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 188,6 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 5,7 % ni) tashkil etdi.

### ***Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish.***


Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 15,8 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,5 % ni) tashkil etdi.




### **Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish.**

Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida iste'mol tovarlar ishlab chiqarish hajmi 264,9 mlrd.so'mni tashkil etdi va 2017 yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan 97,7 %, jami sanoatdagi ulushi esa 7,9 % ni tashkil etdi.

### **2018 yilning yanvar-fevral oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari**




**Yanvar-fevral oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmining tarkibi,  
% da**



**Shahar va tumanlarning sanoat ishlab chiqarishi.**

Navoiy viloyatida sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p Navoiy shahri (viloytda sanoat ishlab chiqarish hajmning 84,8 % ulushini), Karmana (7,4 %), Qiziltepa (2,7 %), Xatirchi (1,8 %), Navbahor (1,6 %), tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.


**2018 yilning yanvar-fevral oylarida hududlarning  
jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, % da**



Shu bilan birga eng kam ulush Zarafshon shahri (0,7 %), Nurota (0,5 %), Uchquduq (0,2 %), Konimex (0,2 %) va Tomdi (0,1 %) tumanlariga to'g'ri keladi.

Raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha yuqori texnologiyali loyihalarni amalga oshirish natijasida Zarafshon shahri (2017 yilning yanvar-fevral oylarida nisbatan 117,5 % ga), Navbahor (115,7 % ga), Karmana (106,9 % ga), Qiziltepa (112,5 % ga), Xatirchi (105,0 % ga) tumanlarida sezilarli darajada ishlab chiqarish hajmining oshishi ta'minlandi.


***2018 yilning yanvar-fevral oylarida shahar va tumanlarda sanoat ishlab chiqarish hajmining o'sish sur'atlari  
(o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan, % da)***



### **Faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari.**

Bugungi kunda viloyatimizda 1579 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, ulardan 508 tasi Navoiy shahrida, 280 tasi Karmana, 220 tasi Nurota, 189 tasi Qiziltepa, 108 tasi Xatirchi, 84 tasi Navbahor, 56 tasi Uchquduq, 35 tasi Tomdi, 26 tasi Konimex tumanlarida va 73 tasi Zarafshon shahrida joylashgan.

#### **2018 yil 1 mart holatiga faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni**



Joriy yilning yanvar oyi davomida viloyatimizda 76 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etilgan bo'lib, ulardan 22,4 % Navoiy shahriga to'g'ri keladi.